

APPROACHES TO THE CONCEPT OF HUMAN CAPITAL

H.Kuchkarov,

Candidate of Economics, Associate Professor.

Abstract: The theory of human capital is currently one of the main intellectual trends that ensure the economic development of the world and the well-being of society. Today, human capital is treated in a unique way in our country. The "Uzbekistan - 2030" strategy was approved by the Decree of the President of September 11, 2023. This programmatic document is intended to realize the desire of our people to build a free and prosperous, powerful New Uzbekistan, to create all opportunities for every citizen to develop their potential, to create a healthy, educated and spiritually mature generation. education, formation of a strong economy that has become an important link of global production, justice, rule of law, security and stability, it was developed based on the experience gained during the implementation of the development strategy of New Uzbekistan and the results of public discussion.

Key words: Human capital, theory of human capital, scholars of antiquity, Eastern thinkers, scientists of the modern world, studies in Uzbekistan.

INSON KAPITALI TUSHUNCHASIGA OID YONDASHUVLAR

H.Kuchkarov,

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: Inson kapitali nazariyasi hozirgi kunda jahonning iqtisodiy taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta'minlovchi asosiy intellektual yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda inson kapitaliga yurtimizda o'ziga xos yondashilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu dasturilamal hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli

iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, inson kapitali nazariyasi, antik davr allomalari, Sharq mutafakkirlari, zamonaviy dunyo olimlari, O'zbekistondagi tadqiqotlar.

Jahonda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ilm-fan sohasida inson kapitali tushunchasining falsafiy-nazariy masalalari keng yoritila boshlandi. Shuningdek, inson kapitali global axborot makonida eng afzal va eng qimmat resursga aylandi. Natijada inson kapitali nazariyasini ishlab chiqish va taraqqiy ettirish, bu yo'lda xizmat qiluvchi o'ziga xos metod va yondashuvlarni yaratish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bugunga qadar inson kapitalida ustuvorlik faqat yuksak texnologiyalarga egalik qilishda ekani e'tirof etib kelingan. Masalaga bunday yondashuv hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, biroq insoniyat taraqqiyotini aks ettiruvchi kashfiyotlar doimiy yangilanishga – o'zgarishga yuz tutmoqda. Binobarin, ilg'or taraqqiyot pog'onasidan joy olgan jamiyatlar boshqa raqobatchilaridan oldinda bo'lishlari uchun bu texnologiyalarni ishlab chiqarishga qodir bo'lgan yuksak qobiliyatli inson kapitali zarur ekanligi ayon bo'lmoqda.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash asosiy g'oyalar sifatida belgilandi.

Ushbu ulug'vor g'oyalar mamlakatimizda inson qadri yanada ulug'lanayotgani, uning salohiyatini yuksaltirish, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, tinch-osoyshta, baxtli va farovon hayotini ta'minlash bosh maqsadga aylangani ifodasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-maydagi “Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish” mavzusida o‘tkazgan yig‘ilishida bildirgan fikrlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmonida “Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil *inson kapitalini rivojlantirish* – Strategiyaning bosh maqsadi” ekanini ta’kidlab, ushbu masalani muhim vazifa sifatida belgilab berilganligi; 2023-yil 11-sentabrda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining qabul qilinishi; 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ning *“Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”* deb nomlangan 4-yo‘nalishidan o‘rin olgan 34 ta maqsad O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir”, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, degan fikrlari Yangi O‘zbekistondagi inson kapitali taraqqiyotida ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qadimgi Yunoniston faylasuf va mutafakkirlari inson va inson kapitali borasida o‘z fikrlariga ega edilar. Jumladan, Suqrot va uning shogirdi Aflotun qarashlarida insonning ijtimoiy qirralari tadqiq etilgan.

Qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari farovon turmushni yaratish zarurligini doimo ta’kidlab kelganlar. Jumladan, farovon turmush tarzini orzu qilganlar. Ana shunday turmush kechirishga insonning o‘zi mas’ul ekanini ko‘rsatishga uringanlar. Bu narsa Maxavira Vardxamana, Konfutsiy, Mo Di kabi donishmandlarning qarashlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Zardushtiylik dini ta’limotlarida inson kapitali elementlari to‘g‘risidagi fikrlar uchraydi. Xususan, odamni sog‘-salomat voyaga yetishida me’yorida ovqatlanish lozimligi, ovqatlanish madaniyatiga rioya qilmagan jamiyat kuchli avlodlarga va

baquvvat mehnatkashlarga ega bo'la olmasligi ta'kidlangan. Shuningdek, ochlik va to'yib ovqat yemaslik kishilarning ma'naviy hislatlariga ham putur yetkazadi, deb qaralgan. Shu boisdan ham inson kamoloti uchun dolzarb ahamiyat kasb etuvchi ozuqaning yetarliligiga e'tibor qaratilgan. Bu yo'lda jamiyat ziroatchilik, chorva boqish kabi sohalar rivojiga tayangan. Zardushtiylarning bu qarashini non va donga boy bo'lgan yurt aholisining quloqlariga pand-nasihatlar, muqaddas bitiklar yetib boradi, degan tamoyillarni ham ko'rish mumkin.

O'rta asr O'rta Osiyo mutafakkirlari ham inson va uning ichki dunyosi borasida o'ziga xos fikr va yondashuvga ega bo'lganlar. Masalan, Abu Rayhon Beruniy "Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bo'lgan talablarni keltirib chiqaradi" degan bo'lsa, Abu Nasr Forobiy "Insondagi shaxsiylikni vujudga kelishiga, insonni boshqa tirik mavjudotlardan farq qilishiga xizmat qiluvchi, asosiysi kishidagi ma'naviy sifatlarni taraqqiy ettiruvchi omil bu uning aqlidir", – deya ta'kidlaydi. J.Rumiy esa "Inson (qalb) ko'zlarini ochgan holda hayotning asl mazmun-mohiyatini anglashi lozim ekanini aytadi.

Inson kapitali haqida G'arbning G.Bekker, T.Shuls, A.Smit, U.Petti, A.Marshal, J.Merrifild, Sh.Rozen kabi mutafakkir olimlarining qarashlari ham o'rganilgan. Xususan, inson kapitali g'oyasi falsafiy-iqtisodiy tafakkur tarixida uzoq ildizlarga ega. Uning ilk ko'rinishlari U.Pettining "Siyosiy arifmetika" asarida uchraydi. Keyinchalik inson kapitali masalalari A.Smitning "Xalqlar boyligi", A.Marshallning "Tamoyillar" va boshqa ko'plab olimlarning asarlarida aks etgan.

Inson kapitali nazariyasi XX asr 50-60 yillariga kelibgina shakllandi. Taniqli amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori T.Shuls inson kapitalining asosiy nazariy modelni ishlab chiqqanini e'tirof etish zarur. Bundan tashqari, G.Bekkerning "Inson kapitali" kitobi sohaga oid tadqiqotlar uchun asos sanaladi va zamonaviy iqtisodiy fanning boshlang'ich asosi sifatida e'tirof etiladi. "Inson kapitali bu har bir odamdagi bilim, ko'nikma hamda motivatsiyalar yig'indisidir", – deya ta'kidlaydi G.Bekker.

Bugungi kunga qadar rus olimlaridan O.Yu.Poroshenko, E.A.Kamalov, V.V.Xominskaya, S.A.Kurganskiy, T.I.Volkova; Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari doirasida T.Kilibayeva, Ali Rezo Mohammad Sargolzai va boshqalarning inson kapitali to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq etilgan. S.A.Kurganskiy ta'rifi bilan aytganda, "inson kapitali insonning hayoti davomida to'plangan shaxsiy hislatlar yig'indisidir. Bu mehnat unumdorligini oshirib, aholi daromadini ko'payishiga xizmat qiladi".

Mustaqil O'zbekistonda ham bir qator tadqiqotlar olib borildi. Xususan, iqtisodchilar (N.Rasulov, Sh.Akromova, S.Husenov, S.Toirov va boshqalar) hamda faylasuf olimlar (L.Qurbonova, F.Yuldasheva, A.Egamberdiyev, G.Yunusova, E.abdullayev va boshqalar)ning inson kapitalini o'ziga xos jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarini misol qilib aytish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson kapitali uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lishiga qaramay, jahon xalqlari tomonidan hozirda aktual ahamiyat kasb etayotgan iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishi hamda ilmiy tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli farmoni. <http://www.lex.uz>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси"ни тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. <http://www.lex.uz>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2018-yil, 28-dekabr. www.president.uz

4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 7. www.president.uz

5. Choriyev A. Inson falsafasi. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B. 13-27.
6. 100 хикматлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи А.Ирисов. – Тошкент: Нур ИИЧБ, 1993. – Б. 9.
7. Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 69.
8. Румий Ж. Ичиндаги ичиндадир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 63.
9. Бу ҳақда қаранг: Шульц Т. Инвестиции в человеческие капитал. – Москва, 1961. – С. 62.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов // Антология экономической классики. – М, 1993, Т.1. – С.382.; 1. Петти У. Экономические и статистические работы – М.: Соцекгиз, 1940. – С.154-171.
10. Экономика народного образования. Учебник для студентов педвузов. – Москва: Под. ред. Костяняна С. Л. 2 – е издание. 1986. – С. 314.
11. Бу ҳақда қаранг: Порошенко Ольга Юрьевна. Уникальность личностного бытия в онтологии социального: Автореферат на соискание ученой степени доктора философских наук. – Казан, 2021. – Б. 9;
12. Камалов Эмиль Альфредович. Специализация и универсализация человека в обществе: современное состояние и перспективы: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Саранск: 2016;
13. Хоминская Валерия Вадимовна. Образование в социокультурном становлении личности: современные антропологические подходы. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Москва: 2017. – Б. 10;
14. Курганский С.А. Человеческий капитал: сущность, структура, оценки. – Иркутск, 1999. – С. 97;
15. Волкова Т.И. Воспроизводство творческого потенциала науки. – Екатеринбург: Институт экономики. УрРАН, 2004. – С. 16;

16. Килыбаева Талгата Берикказиевича-Философские аспекты формирования человеческого капитала: Автореферат. – Казахстан, Алматы, 2015.;
17. Crawford R. In the Era of Human capital. – N.Y.: Harper Business, 1991. – P. 10.;
18. Ageing and Pension System Reform: Implications for Financial Markets and Economic Policies. – OECD., 2005.
19. Курганский С.А. Человеческий капитал: сущность, структура, оценки. – Иркутск: 1999. – С. 97.